Davlat moliyaviy nazoratida axborot texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish masalalari	860
Ro'zimatova Nigora Abdullaevna	
Принципы «справедливой стоимости» в мсфо: достоинства и проблемы применения в банках узбекистана	869
Айтмуродова Рушана Бахтиеровна	
Yashil iqtisodiyot loyihalarini moliyalashtirishning nazariy jihatlari	876
Allaberganova Asalxon Kadirovna	
Davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish hamda amalga oshirish tartibini takomillashtirish	880
Xasanov Ruslan Raxmatovich	
Yirik soliq to'lovchilar va ularning investitsiyaviy faolligini investitsiyaviy chegirmalar orqali rag'batlantirish	883
Tohirov Shuhrat Niyoz o'g'li	
MHXS bo'yicha moliyaviy hisobot tayyorlashda foydalaniladigan tuzatuvchi buxgalteriya yozuvlar.....	888
Sheraliyev Xayrulla Karimovich	
Qurilish korxonalarida investitsiyalarni boshqarishning xorijiy tajribalari va ularni mamlakatimizda foydalanish yo'llari	894
Karimov Inomjon Ortikbaevich	
Davlat xaridini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy amaliyati va uni iqtisodiyotga ta'siri.....	900
Burxanov G'ofur Baxodirovich	
Влияние технологических инноваций на международные финансовые рынки, а также на финансовый рынок нашего государства.....	904
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
Strategic development of global companies in modern conditions.....	909
Nasimov Bakhtiyor Vasiyevich	
Hududlarda sog'liqni saqlash tizimi asosiy ko'rsatkichlarini noaniq modellashtirish yordamida kompleks baholash.....	914
Ismoilova Difuza Ibodullayevna	
Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalashuv jarayonlarini takomillashtirish.....	923
Kulboyeva Nargiz Majitovna	
Сущность и причины возникновения проблемных кредитов	929
Улмасой Ахмедова Хусан кизи	
The use of digitalization and technologies in updating credit policy.....	934
Otabek Ma'mirjon ogli Azimov	
Финансовое моделирование сценариев развития предприятия с использованием методов многокритериального принятия решений (МКПР).....	938
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich, Yuldosheva Gulnoza Abdinabievna	
Yuqori samarali energiya tejash texnologiyalari va katalizga asoslangan konversiya jarayonlari.....	945
Yusupov Ulug'bek Mamayusupovich	
Kambag'allikni kamaytirish maqsadida aholining ijtimoiy himoyalash mexanizmini takomillashtirish	951
Kasimova Gulyar Axmatovna	



Tijorat banklarida foiz riski muammosi	957
Turdiyev Abdulhakim Kulbazarovich	
Milliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqishdagi to'siqlarni bartaraf qilish choralari.....	964
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish usullari.....	970
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
O'zbekistonda mehmonxonalarda ovqatlantirish xizmatlarini takomillashtirish konsepsiyasi: strategik yondashuv.....	974
Yaxshiyev Xusniddin Tolibovich	
O'zbekiston sanoatida "yashil texnologiyalar"dan foydalanish va barqaror rivojlanish.....	979
Ubaydullaeva Gulchehra Erkabaevna	
Sanoat korxonalarida resurslarini rejalashtirish (ERP) tizimlarini joriy etishning orqali iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash yo'llari	985
Azizov Abdulla Abdisalamovich	
Yashil texnologiyalar asosida sanoatni modernizatsiya qilish	990
Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich	
Ta'lim va ilm-fan rivoji – taraqqiyot garovi	995
Jamalova Gulnora Gulomovna	
Yashil iqtisodiyot sharoitida turizm sektorida barqaror bandlikni ta'minlash masalalari.....	1000
To'rabekov Sohijon Sherboy o'g'li	
Yashil energitikani integratsiya qilish va energiya samaradorligini oshirishning zamonaviy usuli (aqlli tarmoqlar-smart grids)	1007
Karimova Salima Elamonovna	
Yashil iqtisodiyot sharoitida soliqlarni raqamlashtirishni takomillashtirish	1012
Jo'rayev Botir Abdiyevich	
Yashil iqtisodiyotda tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish samaradorligi (TEM ko'rsatkichlar izohi)	1018
Sharifova Nargiza Djurayevna	



YASHIL IQTISODIYOTDA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI (TEM KO'RSATKICHLAR IZOHI)

Sharifova Nargiza Djurayevna

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti o'qituvchisi
nargizasharipova439@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish samaradorligi ekologik toza va barqaror iqtisodiy o'sishga erishishning muhim omili sifatida baholanadi. Muallif quyosh, shamol, suv va geotermal energiya kabi tiklanadigan energiya manbalarining issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va atrof-muhitni muhofaza qilishdagi o'rni haqida atroflicha so'z yuritgan. Shuningdek, TEM (tiklanadigan energiya manbalari) ko'rsatkichlariga izoh berilgan, ularning amaliyotdagi qo'llanilishi va samaradorlik darajasi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: TEM, qayta tiklanadigan resurslar, energiya mustaqilligi, ekologik holat, geotermal energiya, innovatsiya, infratuzilma, samaradorlik.

Abstract: In this article, the efficiency of using renewable energy sources in a green economy is evaluated as an important factor in achieving environmentally friendly and sustainable economic growth. In addition, the author discusses in detail the need for renewable energy sources such as solar, wind, water and geothermal energy to reduce greenhouse gas emissions, combat climate change and protect the environment. Also, TEM indicators are explained.

Key words: RES, renewable resources, energy independence, ecological status, geothermal energy, innovation, infrastructure, efficiency.

Аннотация: В статье оценивается эффективность использования возобновляемых источников энергии в зеленой экономике как важный фактор достижения экологически безопасного и устойчивого экономического роста. Автор подробно обсуждает необходимость использования возобновляемых источников энергии, таких как солнечная, ветровая, водная и геотермальная энергия, для сокращения выбросов парниковых газов, борьбы с изменением климата и защиты окружающей среды. Также дается пояснение показателей ТЭМ.

Ключевые слова: ВИЭ, возобновляемые ресурсы, энергетическая независимость, экологический статус, геотермальная энергия, инновации, инфраструктура, эффективность.

KIRISH

XXI asr insoniyat uchun nafaqat texnologik taraqqiyot, balki global ekologik muammolar davri bo'ldi. Iqlim o'zgarishi, atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayishi kabi xavf-xatarlar sayyoramiz kelajagiga jiddiy tahdid solmoqda. Bunday sharoitda, barqaror rivojlanishni ta'minlash va kelajak avlodlar uchun sog'lom muhit yaratish maqsadida, jahon hamjamiyati "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasini faol ilgari surmoqda.

Yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillaridan biri – tiklanadigan energiya manbalaridan keng foydalanishdir. Quyosh, shamol, suv va geotermal energiya kabi manbalar nafaqat ekologik toza, balki cheksiz va iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanadi. Ular qazilma yoqilg'ilardan (ko'mir, neft, gaz) farqli o'laroq, zararli chiqindilarni chiqarmaydi, issiqxona gazlari emissiyasini kamaytiradi va atrof-muhitga minimal ta'sir ko'rsatadi.

Energiya resurslariga bo'lgan talabning ortishi va qazilma yoqilg'i zaxiralarining kamayishi sharoitida tiklanadigan energiya manbalariga o'tish nafaqat ekologik, balki iqtisodiy zaruratga ham aylanmoqda. Bu, bir tomondan, energiya xavfsizligini ta'minlasa, ikkinchi tomondan, yangi ish o'rinlari yaratish, innovatsion



texnologiyalarni rivojlantirish va iqtisodiy o'sishga turtki beradi. Shu sababli ushbu maqolada yashil iqtisodiyotda tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishning zarurati, afzalliklari va istiqbollari atroflicha tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekistonda ushbu sohani rivojlantirish uchun mavjud imkoniyatlar va dolzarb vazifalar ko'rib chiqiladi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda energetika sohasini isloh qilish, energiya bozorini liberallashtirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini hamda energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, hozirda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi qariyb 15 foizni tashkil etadi. 2030-yilga qadar O'zbekiston qayta tiklanuvchi energiya manbalari quvvatini 27 gigavattga yetkazib, elektr energiyasi ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushini kamida 40 foizga olib chiqishni maqsad qilgan.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun esa salmoqli ishlar bajarildi. Xususan, "yashil" energetikani jadal rivojlantirish bo'yicha maxsus dastur qabul qilingan. Shuningdek, har yili 2 gigavattga yaqin quyosh va shamol elektr stansiyalari ishga tushirilmoqda. 2025-yil oxiriga qadar tarmoqqa qo'shimcha 2,6 gigavatt qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarish quvvatlari va 300 megavattli energiya saqlash tizimlari ulanadi.¹

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyotda tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish samaradorligi masalasiga bag'ishlangan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur yo'nalish global miqyosda dolzarb hisoblanadi va ko'plab ilmiy izlanishlarning markazida turadi. Tadqiqotlarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishdagi o'rni, energiya xavfsizligini ta'minlashdagi ahamiyati va iqtisodiy samaradorligi keng yoritilmoqda.

O'zbekistonlik olimlar R. Muhammadaliyev va A. Karimov fikricha, qayta tiklanuvchi energiya manbalari mamlakat uchun iqtisodiy va ekologik jihatdan katta ahamiyatga ega. Ular ayniqsa quyosh, shamol va biomassa manbalarini uzoq muddatli barqaror energiya ta'minoti uchun zarur deb hisoblaydi. Shu bilan birga, O'zbekistonda innovatsion texnologiyalarni joriy etish va energetika tizimini diversifikatsiya qilishni muhim deb biladi.

Buyuk Britaniyalik olim G. Boyle o'z tadqiqotlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining global iqlim o'zgarishiga qarshi kurashdagi asosiy rolini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bunday manbalar nafaqat ekologik jihatdan xavfsiz, balki iqtisodiy samaradorlikni oshiruvchi va barqaror rivojlanishning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, Buyuk Britaniyaning boshqa taniqli olimlari T. Twidell va A. Weir o'z izlanishlarida qayta tiklanadigan resurslar texnologiyalarining texnik taraqqiyoti va ekologik ta'sirini kamaytirish muhimligini alohida ko'rsatadi. Ular energiya sohasidagi innovatsiyalarni kengaytirish hamda hukumat darajasida siyosiy qo'llab-quvvatlashni mustahkamlash zarurligini asoslab berishadi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining joriy etilishi nafaqat ekologik, balki iqtisodiy barqarorlik, energiya mustaqilligi va texnologik innovatsiyalar rivojiga ham xizmat qiladi. Bu esa yashil iqtisodiyot tamoyillariga mos keladigan muqobil energiya strategiyalarini shakllantirishda ilmiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning maqsadi – yashil iqtisodiyotda tiklanadigan energiya manbalaridan (TEM) foydalanish zaruratini, ushbu manbalarning afzalliklari va kamchiliklarini, shuningdek, yashil iqtisodiyotning bugungi kundagi ahamiyatini tahlil qilish hamda uni yanada rivojlantirish va shakllantirish yo'nalishlarini aniqlashdan iborat. Mavzu ilmiy jihatdan o'rganilgan bo'lib, statistik tahlillar, mantiqiy yondashuvlar, tahlil va tadqiqot metodlari asosida turli xil adabiyotlar hamda ilmiy maqolalar tahlil qilinib, umumlashtirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda global iqlim o'zgarishi va energiya resurslarining cheklanganligi tufayli yashil iqtisodiyotga o'tish va tiklanadigan energiya manbalaridan (TEM) foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda. Yashil iqtisodiyot ekologik barqarorlikni ta'minlagan holda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga qaratilgan bo'lib, bu jarayonda TEM muhim rol o'ynaydi.

Tiklanadigan energiya manbalari – xususan quyosh, shamol, suv va geotermal energiya – ekologik toza, takror tiklanuvchi va uzoq muddatli barqaror energiya manbalari sifatida e'tirof etiladi. Bu energiya turlari issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish, atrof-muhitga salbiy ta'sirni cheklash va energiya mustaqilligini ta'minlash imkonini beradi. Shuningdek, TEMni joriy etish yangi ish o'rinlarini yaratish, texnologik innovatsiyalarni rivojlantirish va iqtisodiy faoliyatni diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi.

¹ <https://parliament.gov.uz/news/yashil-energetika-farvon-kelajak-iqtisodiy-barqarorlik-kafolati>



Ushbu maqola orqali yashil iqtisodiyotda TEMdan foydalanish samaradorligi, afzalliklari, mavjud muammolari hamda istiqbolli yo'nalishlari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Natijalar O'zbekistonda TEM sohasini rivojlantirishda ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin (1-jadval).

1-jadval. Yashil iqtisodiyotda tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish samaradorligi.

Manba turi	O'rtacha samaradorlik (%)	Uglerod izi (g CO ₂ /kVt-soat)	O'rtacha narx (AQSh sent/kVt-soat)	O'zbekistondagi o'sish sur'ati (%)
Quyosh energiyasi	15-22	27-48	3-6	20-30
Shamol energiyasi	25-40	11-12	2-5	15-25
Gidroenergetika	80-90	24	1-3	5-10
Geotermal energiya	10-20	45	5-8	2-5
Biomassa energiyasi	20-30	23	6-10	1-3

Tiklanadigan energiya manbalari (TEM) yashil iqtisodiyotda barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ular ekologik tozaligi bilan ajralib turadi, chunki atrof-muhitga zararli chiqindilar, xususan issiqxona gazlarini chiqarishga sabab bo'lmaydi. Bu esa iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va havo sifatini yaxshilashga sezilarli hissa qo'shadi. Shuningdek, TEM cheksiz va tugamaydigan tabiiy resurslarga asoslanadi. Quyosh, shamol, suv va geotermal energiya kabi manbalar energiya xavfsizligini ta'minlaydi va global resurslar uchun kurashni kamaytiradi.

Davlatlar uchun TEMga o'tish energiya importiga bo'lgan qaramlikni kamaytirish, ichki energiya manbalaridan foydalanish va shu orqali energiya mustaqilligini oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, TEM sohasida yangi texnologiyalar va infratuzilmalarni rivojlantirish orqali yuzlab yangi ish o'rinlari yaratiladi, bu esa iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qiladi. TEM bilan bog'liq tadqiqotlar va ishlanmalar texnologik innovatsiyalarni rivojlantirib, sanoat tarmoqlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Yashil iqtisodiyotda TEMdan foydalanish samaradorligini oshirish uchun bir qator yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim. Avvalo, quyosh panellari, shamol turbinalari va boshqa texnologiyalar samaradorligini oshirish uchun ularni doimiy takomillashtirish zarur. Energiya uzatish tarmoqlarini modernizatsiya qilish, energiya saqlash tizimlarini joriy etish hamda TEM stansiyalarini geografik jihatdan qulay joylarda qurish infratuzilmani mustahkamlashga xizmat qiladi.

Davlat siyosati darajasida subsidiya, soliq imtiyozlari va kvotalar kabi mexanizmlarni tizimli joriy etish orqali TEMni rivojlantirish qo'llab-quvvatlanishi kerak. Xususiylar va davlat sektorining hamkorligi orqali yangi TEM loyihalarini moliyalashtirish, sohani kengaytirish uchun investitsiyalarni jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Aholining xabardorligini oshirish esa TEMning afzalliklari haqida keng jamoatchilikka ma'lumot berish orqali bu texnologiyalarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashni kuchaytiradi.

Shu bilan birga, TEMdan foydalanish bilan bog'liq muammolar ham mavjud. TEM stansiyalarini qurish va o'rnatish xarajatlari ko'pincha an'anaviy energiya manbalariga qaraganda yuqoriroq bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, quyosh va shamol energiyasi ob-havo sharoitiga bog'liq bo'lib, ishlab chiqarish hajmining o'zgaruvchanligiga olib keladi. Katta quyosh va shamol stansiyalari esa keng maydonlarni talab qiladi, bu esa yer resurslari bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi.

O'zbekiston sharoitida bu muammolarni hal qilish uchun bir nechta samarali yechimlar mavjud. TEM bo'yicha dastlabki kapital xarajatlarni kamaytirish maqsadida davlat tomonidan subsidiya va soliq imtiyozlarini joriy etish zarur. Energiyaning o'zgaruvchan ishlab chiqarilishini muvozanatlashtirish uchun esa zamonaviy akkumulyatorlar va energiya saqlash tizimlari yaratilishi kerak. Yer resurslaridan oqilona foydalanish orqali ham mavjud infratuzilmalarni qayta moslashtirish, aholi kam yashaydigan yoki qishloq hududlarida TEM stansiyalarini qurish orqali joy tanqisligi muammosi yengillashtiriladi.

Ushbu chora-tadbirlar nafaqat mavjud muammolarni yumshatishga, balki O'zbekistonning yashil iqtisodiy yo'nalishda barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. TEMni kengaytirish orqali mamlakat energiya mustaqilligini kuchaytirib, ekologik jihatdan xavfsiz va iqtisodiy jihatdan barqaror tizimga ega bo'ladi.

Tiklanadigan energiya manbalarining (TEM) umumiy samaradorlik ko'rsatkichlari ularning texnik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan qanchalik foydali ekanligini baholashda muhim mezon bo'lib xizmat qiladi. Energiya ishlab chiqarish ko'rsatkichi (EIK) – bu qurilma yoki stansiya tomonidan ma'lum vaqt davomida, odatda bir yil ichida ishlab chiqarilgan energiya miqdorini bildiradi. Yuqori EIK qurilmaning energetik jihatdan samarali ishlashini anglatadi. Foydalanish koeffitsiyenti (FK) esa qurilmaning real ishlashi davomida ishlab chiqarilgan energiya miqdorining maksimal nazariy quvvatga nisbati orqali aniqlanadi. Bu koeffitsiyent 0 dan 1 gacha bo'lib, qancha yuqori bo'lsa, qurilmaning samaradorligi shuncha yuqori bo'ladi.



Energiya qaytarish davri (EQD) qurilmani qurish, ishlatish va unga xizmat ko'rsatishda sarflangan energiyani qoplash uchun zarur bo'lgan vaqtni bildiradi. EQD qisqa bo'lsa, bu investitsiyaning tez qaytishini va yuqori samaradorlikni anglatadi. Uglerod izi (UI) esa qurilmaning butun hayotiy tsikli davomida – qurilish, foydalanish va utilizatsiya bosqichlarida chiqarilgan issiqxona gazlari miqdorini bildiradi. UI qanchalik past bo'lsa, qurilmaning ekologik samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi.

Turli TEM turlari bo'yicha texnik samaradorlik ko'rsatkichlari ham farq qiladi. Quyosh energiyasida asosiy ko'rsatkich – samaradorlik darajasi bo'lib, bu quyosh nurlanishining elektr energiyasiga aylantirilgan ulushidir. Bu quyidagi formula orqali hisoblanadi: $(\text{chiqish quvvati} / \text{kirish quvvati}) \times 100\%$. Shuningdek, quyosh nurlanishi – ya'ni hududga tushadigan energiya miqdori ham muhim omildir; bu ko'rsatkich qanchalik yuqori bo'lsa, energiya ishlab chiqarish imkoniyati shunchalik katta bo'ladi.

Shamol energiyasi uchun asosiy texnik cheklov – bu Betz limiti bo'lib, u shamol turbinasining maksimal nazariy samaradorligini ifodalaydi (taxminan 59.3%). Shamol tezligi esa ishlab chiqarish samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi; yuqori tezlik yuqori energiya ishlab chiqarishni bildiradi. Gidroenergiya tizimlarida samaradorlik suv oqimining mexanik energiyasini elektr energiyasiga aylantirish ulushi bilan o'lchanadi. Bu yerda suv oqimi va suv bosimi asosiy texnik omillar hisoblanadi; balandlik va suv miqdori qanchalik katta bo'lsa, shunchalik samaradorlik yuqori bo'ladi. Samaradorligining hisoblash formulasi quyidagi:

$$(\text{Chiqish quvvati} / \text{Kirish quvvati}) \times 100\%$$

Geotermal energiyada esa asosiy ko'rsatkich – bu yer ostidan chiqayotgan issiqlik oqimi bo'lib, u vat/m² birligida o'lchanadi. Issiqlik oqimi qanchalik yuqori bo'lsa, bu turdagi TEMdan foydalanish shunchalik samarali bo'ladi.

TEM tizimlarining iqtisodiy samaradorligi bir necha ko'rsatkichlar orqali baholanadi. Energiya tannarxi – ishlab chiqarilgan har bir energiya birligining narxini bildiradi. Bu ko'rsatkich qancha past bo'lsa, iqtisodiy jihatdan samaradorlik shunchalik yuqori bo'ladi. Investitsiya qaytarish davri (IQD) esa loyihaga kiritilgan mablag'larning qanchalik tez qoplashini ifodalaydi. IQD qisqa bo'lishi TEM loyihalarining investitsion jozibadorligini oshiradi. TEM sohasida yaratiladigan ish o'rinlari soni nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy samaradorlikni ham aks ettiradi.

Ijtimoiy samaradorlik ko'rsatkichlari ichida aholining energiya bilan qamrovi muhim o'rin tutadi. Bu ko'rsatkich orqali TEM asosida energiya bilan ta'minlangan aholi soni yoki ulushi aniqlanadi. Qamrov darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ijtimoiy tenglik va energiya adolati shunchalik ta'minlangan bo'ladi. Energiya xavfsizligi esa TEMga o'tish orqali energiya importiga bog'liqlikning kamayish darajasi bilan belgilanadi. Yuqori xavfsizlik darajasi mamlakatning strategik barqarorligini oshiradi va siyosiy mustahkamlikka hissa qo'shadi.

Yuqoridagi barcha texnik, iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar TEM tizimlarining samaradorligini har tomonlama baholash imkonini beradi. Ular yordamida mavjud holat chuqur tahlil qilinadi, rejalashtirilayotgan loyihalarning samaradorligi baholanadi va kelgusidagi qarorlar asosli tarzda qabul qilinadi. Shu tarzda, TEM nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikka xizmat qiluvchi kuchli mexanizm sifatida shakllanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yashil iqtisodiyotda tiklanadigan energiya manbalaridan (TEM) foydalanish nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlaydi, balki iqtisodiy o'sishga ham sezilarli hissa qo'shadi. Texnologik rivojlanish, infratuzilmani takomillashtirish, davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash hamda aholining ushbu yo'nalishdagi xabardorligini oshirish orqali TEMdan foydalanish samaradorligini yanada oshirish mumkin.

O'zbekistonning TEM sohasidagi mavjud salohiyati mamlakatga yashil iqtisodiyotga samarali o'tish va energiya mustaqilligini ta'minlash imkonini beradi. Qayta tiklanadigan energiya manbalari ekologik xavfsizligi bilan ajralib turadi hamda ular tabiiy jarayonlar orqali doimiy yangilanib turadigan energiya turlaridir. Bunday manbalarga quyosh, shamol, gidro, biomassa va geotermal energiya kiradi.

Qayta tiklanadigan energiya (QTE) va yashil iqtisodiyot bugungi kunda ham, kelajak istiqbolida ham ustuvor yo'nalishlar hisoblanadi. Ular atrof-muhitni muhofaza qilish bilan birga, barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish imkonini beradi.

O'zbekiston ham ushbu yo'nalishda faol ish olib bormoqda. Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish va yashil texnologiyalarni keng qo'llash borasidagi tashabbuslar bu yo'nalishda katta salohiyat mavjudligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bakhtiyorovna N. S. et al. NOVATIVE SOLUTIONS FOR ENSURING EMPLOYMENT OF THE POPULATION AND ESTABLISHING HUMAN RESOURCES RELATIONS OF PRODUCTION //JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS. – 2025. – T. 70. – №. 2. – C. 85-88.
2. Nazirova S., Usmonova S. QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBLARI //Modern Science and Research. – 2025. – T. 4. – №. 2. – C. 955-961.
3. Yashil iqtisodiyot: darslik. /A. V. Vaxabov, Sh. X. Hojibakiev va boshqalar. - Toshkent.: "Universitet", 2020.



4. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., «Yashil iqtisodiyot» asosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning nazariy va amaliy jihatlari, «XXI asr: fan va ta'lim masalalari» ilmiy elektron jurnali. №2, 2017-yil.
5. William Hynes, Shannon Wang. Green Growth and Developing Countries, A Summary for Policy Makers, June 2012
6. Turobova H., & Amonov, S. Ecological entrepreneurship as a sustainable business model. Miasto Przyszłości, 47, 466–476. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index>.
7. Захаров В.М. Приоритеты национальной экологической политики России. – М.: ООО «Типография ЛЕВКО», 2009. – 152с.
8. Иминов Т.К., Вахабов А.В., Тешабоев Т.З., Бутабоев М.Т. «Зелёная экономика» как основа устойчивого развития. Монография. – Т.: «Aloqachi», 2019. - 480 с.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
